HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

DAVLATNING PUL KREDIT SIYOSATI: MAQSADI VA DASTAKLARI

Ochilova Sevara Botirali qizi
Murodillayeva Charos Ne'matilla qizi
Qarshi davlat universiteti

Annotatsiya: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining pul-kredit tartibga solish tizimi va tijorat banklari bilan o'zaro munosabatlari. Pul-kredit siyosatining nazariy asoslarini o'rganish, uning iqtisodiyotga ta'sir etish mexanizmlarini tahlil qilish hamda O‘zbekiston sharoitida mazkur siyosatni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat. Bunda pul-kredit siyosatining strategik va oraliq maqsadlari tasniflangan. Markaziy bankning asosiy dastaklari — qayta moliyalash stavkasi, majburiy zahiralash talablari va ochiq bozordagi operatsiyalarning ishlash mexanizmi yoritilgan. Shuningdek, O'zbekistonda inflyatsion targetlash rejimiga o'tishning o'ziga xos xususiyatlari statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, pul-kredit siyosati,inflyatsiya darajalari, ko‘chmas mulk, moliyaviy resurslar, yuridik shaxs, makroiqtisodiy barqarorlik, aholining turmush darajasini oshirish

Kirish: Bugungi kunda sodir bo‘layotgan iqtisodiy o‘zgarishlar va bozor iqtisodiyotining tobora rivojlanib borayotgani, albatta, davlat iqtisodiyotida inflyatsiya darajalarini boshqarishda, pul massalarini nazoratda ushlash, bundan tashqari narx turg‘unligi, iqtisodiy o‘sish va to‘liq ish bilan ta‘minlash kabi makroiqtisodiy maqsadlarni amalga oshirish uchun iqtisodiyotda pul-kredit siyosatini qo‘llashni talab etadi. Pul-kredit siyosati deganda mamlakat Markaziy banki tomonidan iqtisodiyotda pul massasi, foiz stavkalari va kredit mavjudligini tartibga solish bo‘yicha amalga oshirilgan harakatlar tushuniladi. Ushbu siyosat narxlar barqarorligini ta‘minlash, iqtisodiy o‘sishni boshqarish, moliyaviy barqarorlikni saqlash va valyuta kursini boshqarish orqali mamlakat iqtisodiyotida hal qiluvchi rol o‘ynashi mumkin. Bularning barchasi har qanday hukumat uchun sog‘lom va farovon iqtisodiyotni yaratish uchun erishishi kerak bo‘lgan muhim maqsadlardir. Hozirgi vaqtga kelib davlatning iqtisodiy va moliyaviy siyosatini amalga oshirishda davlat moliyasining ahamiyati yanada yuksaldi. Takror ishlab chiqarish jarayonlarini ta‘minlash, xalqning moddiy va ma‘naviy jihatdan farovon turmush tarziga ega bo‘lishi uchun zarur shart-sharoitlar barpo qilish, davlat organlarini mablag‘ tomonlama ta'minotini qoplash, davlatni idora qilish singari sohalarda yetakchi vosita sifatida o‘rin egalladi.

“Shu bilan birga global moliya-iqtisodiy tizimidagi murakkab va tez o‘zgaruvchan, shuningdek, valyuta munosabatlarini tartibga solishni liberallashtirish sharoitida makroiqtisodiy barqarorlik va aholining turmush darajasini oshirishni ta‘minlashga qaratilgan monetar siyosatning amaldagi instrumentlarini tubdan qayta ko‘rib chiqish talab etilmoqda” [1].

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “ Pul kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘risida” gi Qarori,13.09.2017-yildagi PQ-3272-son

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr


Asosiy qism: Markaziy banki bank tizimining bosh banki bo‘lib, pul-kredit siyosatini, emissiya jarayonlarini olib boradi va milliy pulning barqarorligini ta‘minlovchi muassasa hisoblanadi. Markaziy bank o‘z faoliyatini 1995-yil 21-dekabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni asosida olib boradi. Markaziy bank maqomi va maqsadlari “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 1-moddasida belgilangan: “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki yuridik shaxs bo‘lib, faqat davlat mulki hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki — iqtisodiy jihatdan mustaqil muassasa, o‘z xarajatlarini o‘zining daromadlari hisobidan amalga oshiradi”. Qonunning 2-moddasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki yuridik shaxs sifatida ko‘chmas mulk va moliyaviy resurslarga egalik qiladi. Bu hol uning moliyaviy mustaqilligini mustahkamlaydi va mustaqil pul-kredit siyosatini samarali o‘tkazish imkoniyatini beradi. Qonunning 3-moddasida Markaziy bankning bosh maqsadi milliy valyutaning barqarorligini ta’minlashdan iborat ekanligi qayd qilinadi. Narxlarning barqarorligini ta’minlash va milliy pul birligining xorijiy valyuta bozorlarida ayirboshlash kursining barqaror bo‘lishiga erishishni ko‘zda tutuvchi bu maqsad davlatning iqtisodiy siyosatida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining o‘rni juda muhim ekanligini belgilaydi.
Mamlakatda pul muomalasi samarali bo‘lishi va moliya muassasalari faoliyatining ishonchliligi pul-kredit, valyuta siyosati strategiyasi va taktikasini ishlab chiqish hamda amalga oshirishda uning mustaqilligini huquqiy jihatdan mustahkamlash zarurligini taqozo etadi. Mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlarini kreditlash ko‘rsatkichlarini tijorat banklarini qayta moliyalashga doir kredit hajmlarini va foiz stavkalarini belgilash yo‘li bilan tartibga solish, valyuta-kredit siyosatini amalga oshirish, tijorat banklari faoliyatini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining mustaqil siyosat sohasi hisoblanadi. Mustaqil siyosat esa pul va valyuta bozorida yuzaga kelayotgan vaziyatni, ichki bozordagi makroiqtisodiy shart-sharoitni, tashqi omillarni tahlil qilish asosida amalga oshiriladi. Bu holat qonunning 6-moddasida Markaziy bank o‘z vakolatlari doirasida qarorlar qabul qilish borasida mustaqildir deb belgilab berilgan. Davlat Markaziy bankning majburiyatlari yuzasidan, Markaziy bank esa davlatning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo‘lmaydi. Qonunning 8-moddasida Markaziy bank faoliyatining tashkiliy jihatlariga e’tibor qaratilgan bo‘lib, Markaziy bank yagona markazlashtirilgan boshqaruv tizimiga ega ekanligi, Markaziy bank zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun tegishli xizmatlar va muassasalar tashkil etilishi mumkinligi, jumladan, bu borada Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlarning markazlari va Toshkent shahrida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan o‘zining bosh boshqarmalarini tuzishi mumkinligining huquqiy asoslari keltirilgan.

Sh.Z. Abdullayevaning “Bank ishi” darsligida Markaziy bankning pul-kredit siyosati va vositalari to‘g‘risida quyidagi ma’lumotlar berilgan:
O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki pul-kredit siyosatining asosiy yo‘nalishlarini bir yilga ishlab chiqadi. Bu dastur iqtisodiy vaziyatni tahlil qilish va oldindan aytishni, pul miqdorining yillik o‘sishi sur‘atlarining maqsadli ko‘rsatkichlarini, kredit, foiz va valyuta siyosatini amalga oshirish yo‘nalishlarini o‘z ichiga oladi. Umumiy iqtisodiy tahlilning zarurligiga sabab shuki, monetar siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish barcha muhim makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, pulning qadrsizlanishi, milliy ishlab chiqarishning umumiy hajmi va mehnat resurslarining bandligi, to‘lov balansi bilan chambarchas bog‘langan. Pul muomalasini boshqarib borish vositalarini quyidagi rasmdan ko‘rish mumkin: [2]

[2] Bank ishi: Darslik/ Sh.Z.Abdullayeva; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi - T.: “Iqtisod - Moliya”,2017

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

1-chizma.Pul-kredit siyosatining asosiy vositalari



Xulosa: Pul-kredit siyosati davlatning makroiqtisodiy tartibga solish tizimidagi eng dinamik va ta’sirchan bo‘g‘ini hisoblanadi. Zamonaviy sharoitda ushbu siyosatning bosh maqsadi — narxlar barqarorligini ta’minlash orqali iqtisodiy o‘sish uchun mustahkam poydevor yaratishdir. Markaziy bank ixtiyoridagi pul-kredit dastaklari (instrumentlari) tizimi o‘zaro bog‘liqlikda ishlashi aniqlandi. Xususan, asosiy stavkaning o‘zgarishi banklararo pul bozoridagi foizlarga, bu esa o‘z navbatida aholi va tadbirkorlarning jamg‘arma hamda iste’mol xulq-atvoriga ta’sir etadi. Majburiy zahira talablari esa bank tizimidagi ortiqcha likvidlikni jilovlashda "xavfsizlik yostig‘i" vazifasini o‘taydi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, ushbu dastaklardan alohida emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi mexanizm sifatida foydalanish monetar siyosatning samaradorligini keskin oshiradi. O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar pul-kredit siyosatining mutlaqo yangi bosqichga — inflyatsion targetlash rejimiga o‘tganligini ko‘rsatmoqda. Bu rejimning o‘ziga xosligi shundaki, Markaziy bank endilikda faqat pul massasini nazorat qilish bilan cheklanib qolmay, balki kutilayotgan inflyatsiya darajasini maqsadli ko‘rsatkich (target) doirasida ushlab turishga mas’ul bo‘lmoqda. Bu esa milliy valyuta — so‘mga bo‘lgan ishonchni mustahkamlashning asosiy garovidir. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, pul-kredit siyosatining muvaffaqiyati faqatgina Markaziy bank faoliyatiga bog‘liq emas. Uning samaradorligi davlatning fiskal (soliq-budjet) siyosati bilan muvofiqligiga (koordinatsiyasiga) bevosita bog‘liqdir. Budjet taqchilligining pasaytirilishi va tarkibiy islohotlarning davom ettirilishi monetar dastaklarning iqtisodiyotga ta’sirini kuchaytiradi.Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, davlatning pul-kredit siyosati shunchaki texnik jarayon emas, balki mamlakat iqtisodiy xavfsizligi va aholi farovonligini ta’minlovchi strategik vositadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “ Pul kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘risida” gi Qarori,13.09.2017-yildagi PQ-3272-son
2. Bank ishi: Darslik/ Sh.Z.Abdullayeva; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi - T.: “Iqtisod - Moliya”,2017
3. O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sahifasi – cbu.uz va “Pul kredit siyosati sharhlari” dan